

ZAMONAVIY O'ZBEK JAMIYATIDA OILA INSTITUTINING O'RNI.

Karimjonova Gulshanoy Sherali qizi

Namangan davlat universiteti

Sotsiologiya yo'nalishi 1-kurs magistranti.

Annotatsiya: Oila – nikoh yoki tug'ishganlikka asoslangan kichik guruh. Uning a'zolari ro'zg'orining birligi, o'zaro yordami va ma'naviy mas'uliyati bilan bir-biriga boglangan. Oilaning eng muhim ijtimoiy vazifalari – inson zotini davom ettirishdan, bolalarni tarbiyalashdan, oila a'zolarining turmush sharoitini va bo'sh vaqtini samarali uyushtirishdan iboratdir. Ushbu ilmiy maqolada zamonaviy o'zbek jamiyatida oila institutining o'rni va ahamiyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Nikoh, xalq, xotin-qizlar, tarbiya, nikoh, ijtimoiy, tendensiya, transformatsiya.

Oila deganda ko'z oldimizda ota – ona farzandlar, bobo-buvilar ya'ni bir xonadonda istiqomat qiluvchi shaxslar keladi. Xalqimizda oilaga muqaddas dargoh, nikoh esa buzulmas Rishta sifatida qaraladi. Oila jamiyatning ustuni deyishadi. Shuning uchun yangi oila barpo bo'lar ekan, uni ikki yoshga, ya'ni yangi er- xotinlarga tashlab qo'yilmaydi. Yangi oilaga ota-onalar, qarindoshlar, maxalla, turar joylardagi xotin qizlar qo'mitalari "Oila" ilmiy amaliy markazi shuningdek mutasaddi markazlar ham e'tibor qaratadi. Bugungi kunda bizning mamlakatimizda oila masalasiga davlat siyosati darajasida katta e'tibor qaratib kelinmoqda. Har bir inson baxtli yashashga haqlidir. Oilalarda bir-birini tushunib bir-biriga moslashib yashasa jamiyat mustaxkam va manashu oilada baxt barqaror davom etadi.

Oila jamiyatning eng muhim ijtimoiy institutlaridan biri bo'lib, inson hayotining barcha jabhalarini qamrab oladi. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng, oilaning jamiyatdagi o'rni va ahamiyatini oshirish, oilaviy munosabatlarni mustahkamlash va rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Biroq, globallashuv va modernizatsiya jarayonlari oila institutiga o'z ta'sirini

o'tkazmoqda, bu esa uning transformatsiyasiga olib kelmoqda.

Oila shaxs tarbiyasida va ijtimoiylashuvida boshqa ijtimoiy institutlar bilan taqqoslaganda eng muhim vazifalarni bajaradi. Chunki, aynan oilada individual qobiliyatlar, shaxsiy, kasbiy qiziqishlar, axloqiy normalar shakllanadi. Oila omili insonga butun umr davomida ta'sir etadi. Ijtimoiy jihatdan oila - inson turli ijtimoiy maqomlarni egallaydigan jamoa hisoblanadi. Oila insonning o'z - o'zini belgilab olishiga, uning ijtimoiy-ijodiy faolligini oshirishiga yordam beradi.

Oilaviy munosabatlar oliy qadriyat hisoblangan O'zbekistonda oilaning ijtimoiy maqomi nihoyatda balanddir va o'z mavqeini mustahkamlab bormoqda. Oilada tarbiyaviy omillar ta'sirida bilim va ko'nikmalar tarkib topadi, qadriyatlar avloddan-avlodga o'tadi. Ko'p bolali o'zbek oilalarida muloqot madaniyati va tartibning saqlanishi oiladagi munosabatlarning barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Biroq bugungi kunda butun dunyoda yuz berayotgan oila inqirozi o'zbekistondagi oilalarga ham ta'sir qilmoqda. Oila a'zolari sonining qisqarishi, avlodlarning bir-biridan uzoqlashuvi, migratsiya jarayonlarining ta'sirida oilaviy munosabatlarni mustahkamlash masalasi borgan sari dolzarblik kasb etib bormoqda. Oila bugungi kunda yuksak malakali mutaxassislarning, jumladan mahallada oilalarni mustahkamlashda eng jonbozlik ko'rsatadigan mahalla faolining yordamiga muhtojlik sezmoqda. Shuning uchun ushbu ma'ruzada oilani ijtimoiy institut sifatidagi funksiyalarini kengroq yoritishga va shu orqali mahalla faollarining ushbu yo'nalishdagi bilimlarini mustahkamlashga harakat qilindi.

Oila instituti jamiyatning fundamental tuzilmasi sifatida insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida muhim rol o'ynab kelgan. XXI asrda globallashtirish, urbanizatsiya va raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi oila institutining tub mohiyatini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. BMTning 2023-yilgi "Global Family Trends" hisobotiga ko'ra, so'nggi yarimasr davomida dunyo miqyosida oila tuzilishi, funktsiyalari va ijtimoiy roli sezilarli o'zgarishlarga uchradi. Bu o'zgarishlar zamonaviy oilaning yangi modellarini shakllantirish va mavjud muammolarni hal etish uchun kompleks yondashuvni talab qilmoqda.

Oila institutining rivojlanishiga oid adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki,

oila institutining transformatsiyasi global tendensiya hisoblanadi. Biroq, har bir mamlakat o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, oila institutining rivojlanishi turlicha kechadi [4]. O'zbekistonda oila institutining rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar orasida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

Tarixiy omillar: O'zbekistonda oila instituti tarixan mustahkam an'analarga ega bo'lib, avlodlararo aloqalarni saqlab qolishga qaratilgan. Shu bilan birga, sovet davrida oilaning jamiyatdagi o'rni va ahamiyati pasaygan edi.

Ijtimoiy-madaniy omillar: O'zbekiston jamiyatida oilaviy qadriyatlar va an'analar muhim o'rin tutadi. Oilaviy munosabatlar ko'p jihatdan milliy mentalitet va diniy e'tiqodlar bilan bog'liq.

Iqtisodiy omillar: Bozor iqtisodiyotiga o'tish va iqtisodiy islohotlar oila institutiga o'z ta'sirini o'tkazdi. Iqtisodiy qiyinchiliklar va ishsizlik oilaviy munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Oilaviy munosabatlar tizimining rivojlanishi nikohga kiruvchilar sonining kamayishi va nikoq uchun sherik tanlash tartiblarining qat'iy belgilanishi yo'nalishida ro'y bergan. Insoniyat ijtimoiy tashkil topishining eng qadimiy shakli bu urug'-qabila bo'lib, u bir ayol urug'idan tarqagan, matriarxat zotidan kelib chiqadigan (uning qizlari, qizlarning farzandlari va ularning avlodlari) barcha odamlarni o'zida birlashtirgan. SHu tariqa urug' – mohiyatan matriarxal oila bo'lib, onaning zotidan tarqalgan barcha avlodni bir-biriga chatishtirib boravergan. Bunday urug' shaklining saqlanib qolgan andozalaridan biri ruslardagi “matreshka” o'yinchog'i bo'lib, u bizga ona avlodlarining o'zaro bir-birlaridan kelib chiqishini ifodalaydi. Gruppaviy yoki guruhiiy oila – bir necha opa-singillarning boshqa bir toifa erkaklar guruhi bilan nikohga kirishini taqozo etgan. Bunday ayollar yo o'z qavmidan bo'lgan erkakka yoki tamoman boshqa – begona urug'ning vakili bo'lmish erkakka turmushga chiqishi mumkin bo'lgan. Lekin avlodning kelib chiqishi onalik urug'iga bog'langan, otalikni belgilash holatlari inobatga olinmagan.

S. Golodning yozishicha (1998 y.), onadan tarqagan avlodlar XIX asr oxiri va XX asr boshlarida ham ko'pgina xalqlarda saqlanib kelgan. Juftlik oila –

alohida, bir-biriga unchalik yaqin bo'lmagan yoki mutloq begona ikki kishi o'rtasidagi nikohni nazarda tutgan bo'lib, ular o'rtasidagi munosabatlar har doim ham mustahkam bo'lmagan va tomonlarning xohishirodasiga ko'ra u istalgan vaqtda barbod bo'lishi ham mumkin edi. Hozirda mavjud bo'lgan oilalarda shaklan shu model saqlab qolingan.

Oilani jamiyatning ravnaq topilishidash tutgan o'rni va ishtirokini yanada oshirish, oilalarning huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy manfaatlarini va farovonligini yaxshilashni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish hamda izchil ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti 1998-yilni „Oila yili“ deb e'lon qilingan. Bu xam o'z negizida oila muqaddas dargoh ekanligidan dalolat beradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda oila institutining rivojlanishi bir qator ijobiy va salbiy tendensiyalarga ega. Ijobiy tendensiyalar orasida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

Oilaviy qadriyatlarning tiklanishi: Mustaqillik yillarida oilaviy qadriyatlar va an'analarni saqlash va rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Oilaviy munosabatlarni mustahkamlashga qaratilgan davlat siyosati olib borilmoqda.

Nikohlarning ko'payishi: So'nggi yillarda nikohlarning soni ortib bormoqda. Bu oila institutining mustahkamlanishidan dalolat beradi.

Oilaviy tadbirkorlikning rivojlanishi: Oilaviy biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat dasturlari ishlab chiqilmoqda. Bu oila a'zolarining iqtisodiy farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy oila instituti murakkab va ko'p qirrali transformatsiya jarayonini boshdankechirmoqda. Globallashtirish va raqamli texnologiyalar davri oilaning an'anaviy shakllarini o'zgartirib, yangi modellarni shakllantirmoqda. Bu jarayonda oilaning asosiy funktsiyalarini saqlab qolgan holda, zamonaviy talablarga moslashish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish va milliy qadriyatlarni uyg'unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda oila instituti murakkab transformatsiyalashuv jarayonini boshdan kechirmoqda. Bir tomondan, oilaviy

qadriyatlar va an'analar tiklanmoqda, boshqa tomondan esa, oila institutining zaiflashuvi kuzatilmoqda. Oila institutini yanada rivojlantirish uchun davlat va jamiyat hamkorligini yanada mustahkamlash, oilaviy munosabatlarni yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish zarur. Oila institutining rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni atroflicha tahlil qilish va har bir omilga alohida e'tibor qaratish kerak. Masalan, dindorlik darajasi va milliy mentalitet kabi omillarning oilaviy munosabatlarga ta'sirini ham hisobga olish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Inoyatov M. Oila, ijod, tarbiya va ma'naviyat. – T.: SHarq, 2000. – 111 b.
2. Xoliqov D.R. Huquqiy madaniyat – oila mustahkamligi asosi – T.: Fan, 2007
3. Umarova M.M. O'smirlarda oilaviy qadriyatlar to'g'risidagi tasavvurlar shakllanishining ijtimoiy-psixologik shart-sharoitlari:
4. Usmonov M., Hamidov X. Donishmandlar oila haqida. – T., 1999. 5. Safarov O., Mahmudov M. Oila ma'naviyati. – T.: "Ma'naviyat", 1998.
5. Арифханова А. (2020). Трансформация института семьи в Узбекистане. Сборник радова Филозофского факультета в Приштине, 50(4), 149-163